

**QORAQALOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BEKBERGENOV HIKMET UTEPOVICH

**QORAQALPOQ VA INGLIZ TILLARIDAGI OTNING MORFOLOGIK
VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus-2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Bekbergenov Hikmet Utepovich

Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning morfologik va semantik xususiyatlari.... 3

Бекбергенов Хикмет Утепович

Морфологические и семантические особенности существительных в каракалпакском и английском языках..... 25

Bekbergenov Hikmet Utepovich

Morphological and semantic peculiarities of Karakalpak and English nouns..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**QORAQALOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BEKBERGENOV HIKMET UTEPOVICH

**QORAQALPOQ VA INGLIZ TILLARIDAGI OTNING MORFOLOGIK
VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3469 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Seytjanov Jetkerbay Elubaevich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Alniyazov Aytmurat Ismailovich
filologiya fanlari doktori, professor

Abidova Roxatoy Xudayberganovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent


Yetakchi tashkilot:

Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «23» oktyabr kuni soat 16.00 dagi majlisida bo'ladi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (376 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «02» oktyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «02» oktyabr dagi №21 raqamli reestr bayonnomasi).



M.S.Kudaybergenov

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

G.K.Kdirbaeva

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotiби v.b., filologiya fanlari doktori (DSc),
dotsent

G.A.Kurbaniyazov

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida eng yirik grammatik kategoriyalardan biri hisoblangan ot soʻz turkumi oʻziga xos morfologik-semantik va funksional-semantik xususiyatlarga ega. Ot va uning grammatik vositalari haqiqiy voqelikdagi predmetlar, ularning soni hamda oʻzaro munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Lekin bu lisoniy vositalarning morfologik tuzilishi barcha dunyo tillarida bir xil emas. Ayniqsa, tillar qarindoshlik darajasi jihatidan uzoqlashgan sari ulardagi oʻxshashliklar kamayib, farqlar ortib boradi. Mazkur xususiyatlarni aniqlash zamonaviy tilshunoslik, xususan qiyosiy tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Dunyo tilshunosligida ot soʻz turkumi lugʻaviy hajmi, qoʻllanish doirasi va gapdagi bajaradigan vazifalari jihatidan eng muhim soʻz turkumlaridan biri hisoblanadi. Qoraqalpoq va ingliz tilshunosligida ot turkumining grammatik kategoriyalari, morfologik tuzilishi va semantik xususiyatlari yuzasidan koʻplab tadqiqotlar olib borilgan. Ammo bu grammatik kategoriyalarning shakli va maʼnaviy xususiyatlari qoraqalpoq va ingliz tillari misolida qiyosiy-tipologik jihatdan yetarlicha tahlil qilinmaganligi mazkur ilmiy tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Turli til oilalariga mansub tillardagi lingvistik birliklarni chogʻishtirma aspektida – til va nutq, ifoda va mazmun nuqtayi nazaridan tadqiq qilish ularning umumiy va xususiy belgilari aniqlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Natijada tillararo umumiylik va oʻziga xosliklar ochib berilib, mavjud ilmiy nazariyalar doirasi kengayadi hamda yangi qarashlar bilan boyitiladi.

Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab davlat tili, ona tili va jahon tillarini oʻrganish hamda oʻqitishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Biz davlat tili taraqqiyotini jahondagi yetakchi xorijiy tillar va mamlakatimizdagi turli millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bogʻliq holda koʻramiz”¹ degan fikri, davlat tilini qardosh va boshqa dunyo tillari bilan qiyosiy-tipologik jihatdan oʻrganishning mamlakatimiz ilm-fani, tili va madaniyati rivojlanishidagi eng muhim omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Dunyo tillarining eng asosiy leksik va grammatik birligi boʻlgan ot va unga xos grammatik kategoriyalarning qoraqalpoq hamda ingliz tillari misolida olib borilgan qiyosiy tahlili esa tilshunoslik va madaniyatlararo aloqalar rivojiga oʻz hissasini qoʻshadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonlari, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarini oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-5117-sonli qaror, Qoraqalpogʻiston

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганига 34 йил тўлиши муносабати билан Ўзбекистон халқига байрам табриги // Халқ сўзи. – Тошкент, 2023 йил, 22-октябрь. - №225 (8568). – б. 1.

Respublikasi Joqarg'i Kengesi Rayyosatining 2020-yil 3-noyabrdagi 135-sonli "Qoraqalpoq tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qoraqalpoq tilshunosligida ot so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar N. Baskakov, A. Qidirbayev, M. Davletov, E. Davenov, A. Davletov, A. Najimov, A. Niyazov, A. Bekbergenov, M. Qudaybergenov va Sh. Abdinazimovlar tomonidan olib borilgan². Qoraqalpoq tilidagi otning grammatik son, kelishik, aniqlik/aniqsizlik va egalik kategoriyalarini esa A. Qidirbayev, D. Nasirov, M. Qudaybergenov, K. Seytova, R. Japaqova, A. Orazimbetov, M. Embergenova, G. Patullayeva va G. Abishovalar maxsus tadqiq etishgan³.

Ingliz tilida otning son va kelishik kategoriyasi R. Quirk, S. Greenbaum, G. Leech, J. Svartviklarning, R. Huddleston, G.K. Pullumlarning hamda D. Biber, S. Johanson, G. Leech, S. Conrad, E. Fineganlarning muallifligida yozilgan ilmiy grammatikalarda keng ko'lamda tahlil qilingan⁴. J. Hewson, M.A. Wickens, W.Hirtle, K. Allan, Ch. Filmore, J.R. Taylor, J. Anderson, L. Gardel, A.Rozenbachlar esa ingliz tilidagi son va kelishik tizimini maxsus tadqiq qildilar⁵.

² Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Т. 3. Морфология (Словоизменение). Синтаксис (Словосочетание и предложение). – Нукус: Билим, 1995; Қыдырбаев А. Ҳазирги қарақалпақ тилиндеги атлық сөзлер. – Нөкис, 1968; Ҳазирги қарақалпақ әдебий тилинің грамматикасы. Сөз жасалыуы хәм морфология. – Нөкис: Билим, 1994; Ҳазирги қарақалпақ тили морфология. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1981; Дәўенов Е., Дәўлетов М. Ҳазирги қарақалпақ әдебий тилинің грамматикасы. – Нөкис: Билим, 1992; Ҳазирги қарақалпақ тили. Синтаксис. – Нөкис: Билим, 1996; Dáwletov A., Dáwletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. Sintaksis. Sabaqlıq. – Nókis: Bilim, 1996; Qudaybergenov M., Qazaqbaeva A., Kurtchaev A. Qaraqalpaq tiliniń teoriyalıq grammatikası. Oqıw qollanba. – Nókis, 2016; Abdinazimov Sh. Qaraqalpaq tili tariyxı. 5120100 – Filologiya hám tillerdi oqıtıw (qaraqalpaq filologiyası) baǵdarı talabaları ushın sabaqlıq. – Tashkent: Sano-standart, 2018.

³ Насыров Д.С. Қарақалпақ тилинде көплік категориясы. – Нөкис, 1961; Сеитова К.П. Способы выражение множества в современном русском языке (в сравнении с каракалпакским): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983; Жапакова Р.Н. Склонение имен существительных в каракалпакском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нукус, 1971; Qudaybergenov M. Qaraqalpaq tilindegi atlıqlarda anıqlılıq hám anıqsızlıqtıń anlatılıwı. Monografiya. – Nókis: Bilim, 2007; Orazimbetov A.Q. Házirgi qaraqalpaq tilinde san mánisiniń anlatılıwı. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2010; Patullaeva G. Qaraqalpaq tilinde tartım mánisiniń bildiriliw usılları. Monografiya. – Tashkent: BAYOZ, 2015; Embergenova M.A. Házirgi qaraqalpaq tilinde seplikli konstrukciyalardıń sinonimiyası. Metodikalıq qollanba. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2006; Abishova G. Nemis va qoraqalpoq tillarida kelishiklar sistemasining semantik vazifasi: Filol. fan. fals. d-ri. (PhD) ... dis. Avtoref. – Nukus, 2024.

⁴ Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London and New York: Longman, 1985; Huddleston R., Pullum G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002; Huddleston R., Pullum G.K. A Student's Introduction to English Grammar. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005; Biber, D et al. Longman Grammar of Spoken and Written English. – Harlow: Pearson Education Limited, 1999; Carter R., McCarthy M. Cambridge Grammar of English. – Cambridge University Press, 2006; Greenbaum S. The Oxford English Grammar. – Oxford: Oxford University Press, 1996.

⁵ Hewson J. Article and Noun in English. The Hague-Mouton, 1972; Wickens, Mark A. Grammatical number in English nouns: an empirical and theoretical account. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1992; Allan Keith. Singularity and plurality in English noun phrases: A study in grammar and pragmatics: Doctoral thesis, Edinburgh University, 1977; Hirtle W.H. Lessons on the noun phrase in English: from representation to reference. –

Mazkur dissertatsiyaning tadqiqot obyekti bo'lgan qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning son va kelishik kategoriyalari bo'yicha olib borilgan bu tadqiqot ishi yuqorida nomi keltirilgan olimlarning nazariyalariga asoslanadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq «Qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik masalalari» mavzusida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qoraqalpoq va ingliz tillaridagi ot so'z turkumiga xos son va kelishik kategoriyalarining morfologik va semantik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning grammatik kategoriyalari va ularning morfologik tuzilishiga umumiy tavsif berish;

qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning son va kelishik kategoriyalarining morfologik xususiyatlarini yoritish;

ikkala tildagi son va kelishik shakllarining umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash;

ikkala tildagi grammatik son va kelishik kategoriyalarining semantik xususiyatlarini hamda ularning o'xshash va farqli jihatlarini ochib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning son va kelishik kategoriyalari tanlangan.

Tadqiqot predmetini qoraqalpoq va ingliz tillaridagi ot so'z turkumiga xos son va kelishik kategoriyalarining morfologik va semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tavsifiy, chog'ishtirma-tipologik, strukturaviy, komponent va semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning son va kelishik kategoriyalarining morfologik tuzilishi, affikslarining otlarga birikishi, fonetik variantlari va o'qilishi hamda otlarga qo'shilishida allomorfik jihatlarining ustunligi ochib berilgan;

qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning ko'plik son ko'rsatkichlarining ma'nolari otning semantik guruhlariga bo'lgan atoqli, turdosh, moddiy, abstrakt va jamlovchi otlarga nisbatan tahlil qilinib, bu ma'nolarning universal jihatlarining ustunligi autentik materiallardan olingan misollar asosida isbotlangan;

qoraqalpoq tilidagi otning ko'plik son shaklining assotsiativ ko'plik ma'no ottenkasi ingliz tilida ko'plik son morfemasi orqali emas, balki sintaktik usulda ifodalanishi aniqlangan;

qoraqalpoq tilidagi "iyelik" va ingliz tilidagi "genitive" kelishiklarining ma'nolarida o'xshashliklar bilan birga farqlar ham mavjudligi, qoraqalpoq tilidagi

Montreal & Kingston: McGill-Queen's University Press, 2009; Gardelle Laure. Semantic Plurality. English collective nouns and other ways of denoting pluralities of entities. John Benjamins publishing company. – Amsterdam & Philadelphia, 2019; Fillmore Ch. J. The Case for Case. In E. W. Bach & R.T. Harms (Eds.), Universals in Linguistic Theory. – New York, NY, 1967: Holt, Rinehart, and Winston; Rosenbach, Anette. Genitive variation in English: conceptual factors in synchronic and diachronic studies / by Anette Rosenbach. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2002; Anderson, John M. On Case Grammar. – London: Croom Helm, 1977; Taylor J.R. Possessive genitives in English. Linguistics 27. 1989. – P. 663-686.

“baris”, “shıǵıs” va “orm” kelishiklarining ma’nolari esa ingliz tilida asosan predloglar orqali ifodalanishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq va ingliz tillaridagi ot soʻz turkumiga xos son va kelishik kategoriyalari struktural-semantik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi;

qoraqalpoq va ingliz tillaridagi son kategoriyasi morfemalarining qiyosiy tadqiqoti otning ma’no guruhlariga bogʻliq holda amalga oshirildi;

qoraqalpoq tilidagi son va kelishik koʻrsatkichlarining otlarga qoʻshilish algoritmlari ishlab chiqildi;

ikkala tildagi kelishik shakllarining asosiy va periferik ma’nolari aniqlandi va ularning izomorf va allomorf jihatlari koʻrsatildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammo yuzasidan nazariy qarashlarning oʻrganilganligi, foydalanilgan lingvistik metodlarning tadqiqot maqsadiga mosligi, ma’lumotlarni berishda ilmiy manbalarga tayanilganligi, ma’lumotlarning toʻgʻriligi badiiy manbalardan olingan misollar orqali isbotlanganligi, olingan natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi ot soʻz turkumiga oid grammatik kategoriyalarning shakl va ma’no jihatlari tizimli va qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan oʻrganilishi natijasida olingan ma’lumotlar umumiy, xususiy va qiyosiy tilshunoslikning struktural-semantik aspektlariga oid ilmiy-nazariy qarashlarni boyitadi.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalar morfologiya, sintaksis, stilistika, nazariy tilshunoslik hamda qoraqalpoq va ingliz tillarining qiyosiy tipologiyasi fanlari boʻyicha nazariy va amaliy kurslar, darsliklar, qoʻllanmalar hamda ikki tilli lugʻatlarni yaratishda ilmiy manba sifatida foydalanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning morfologik va semantik xususiyatlari tahlili boʻyicha olingan natijalar va amaliy tavsiyalar asosida:

qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning son va kelishik kategoriyalarining morfologik tuzilishi, affikslarining otlarga birikishi, fonetik variantlari va oʻqilishi hamda otlarga qoʻshilishida allomorflik jihatlarning ustunligiga oid xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan FA-F1-OO5 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi; T.N. Qori-Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialida 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan F3-2016-0908165532-raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihalarni bajarishda foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpogʻiston filialining 2025-yil 7-fevraldagi 44-son ma’lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning son va kelishik kategoriyalarining ifoda va mazmun jihatidan oʻziga xosliklari toʻgʻri oʻzlashtirilishiga erishilgan;

qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning ko'plik son ko'rsatkichlarining ma'nolari otning semantik guruhlari bo'lgan atoqli, turdosh, moddiy, abstrakt va jamlovchi otlarga nisbatan tahlil qilinib, bu ma'nolarning universal jihatlarining ustunligi autentik materiallardan olingan misollar asosida isbotlanishiga oid xulosalardan Qoraqalpoq davlat universitetida 2018-2020 yillarda amalga oshirilgan P3-20170930309 raqamli "Qoraqalpoq folklori tilining adabiy til rivojlanishiga ta'siri masalasi" nomli amaliy tadqiqot dasturida foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 2025-yil 19-fevraldagi 01-21-02/401-son ma'lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning son kategoriyasining morfologik va semantik xususiyatlarining o'xshash va farqli jihatlarini samarali o'rganilishiga xizmat qilgan;

qoraqalpoq tilidagi otning ko'plik son shakllarining assotsiativ ko'plik ma'no ottenkasi ingliz tilida ko'plik son morfemasi orqali emas, balki sintaktik usulda ifodalanishiga oid ilmiy xulosalardan Qoraqalpog'iston teleradiokanalining "Tilge itibar – elge itibar", "Kúsh bilimde", "Assalawma áleykum Qaraqalpaqstan" dasturlaridagi eshittirishlarni tayyorlashda qo'llanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi telekanali davlat muassasasining 2025-yil 25-fevraldagi 05-22/112-son ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuv va radioeshittirish matnlarini tahrirlashdagi ba'zi lingvistik muammolarni hal etishga xizmat qilgan;

qoraqalpoq tilidagi "iyelik" va ingliz tilidagi "genitive" kelishiklarining ma'nolarida o'xshashliklar bilan birga farqlar ham mavjudligi, qoraqalpoq tilidagi "baris", "shıǵıs" va "orın" kelishiklarining ma'nolari esa ingliz tilida asosan predloglar orqali ifodalanishiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan "Qoraqalpoq og'zaki nasri (janrlar tuzilishi, genezisi, obrazlar tizimi, syujet va motivlari, poetikasi)" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 17-fevraldagi 65/1-son ma'lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning kelishik kategoriyalarining morfologik va semantik xususiyatlarining o'xshash va farqli jihatlarini chuqur o'rganilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 10 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 159 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan hamda uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan.

Shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy etilishi va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi ot so‘z turkumi va uning grammatik kategoriyalari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismi «Ot – predmetlik xarakteriga ega so‘zlarni jamlovchi leksika-grammatik kategoriya sifatida» deb ataladi. Ushbu qismda ot so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar orqali ifodalanuvchi predmet va predmetlik tushunchalarining umumiy tavsifi berilgan.

Tilshunoslikda predmet nomlari – otlar, ularning sifatini ifodalovchi so‘zlar – sifatlar, predmetlarning turli harakatlarini ifodalovchi nomlar – fe’llar, shu harakatlarning har xil sifatlarini ifodalovchi so‘zlar esa – ravishlar deb ataladi. Ko‘plab olimlar ushbu to‘rt so‘z turkumi ichida otlarni predmet xarakteriga ega so‘zlar, qolganlarini esa belgi ma’nosidagi so‘zlar deb ko‘rsatadilar⁶. S. Katsnelson otlarni nomlovchi so‘zlar, fe’l, sifatdash va ravishlarni esa predikativ xarakterga ega so‘zlar qatoriga kiritadi⁷. Kognitiv grammatistlar esa otlarni narsa (thing) ma’nosidagi so‘zlar, qolgan so‘z turkumlarini esa munosabat (relationship) xarakteridagi so‘zlar deb ataydilar⁸. Ushbu fikrlardan ko‘rinadiki, otlar nomlash, narsa, predmet va predmetlik tushunchalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Tilshunoslikda predmetlik tushunchasi faqat aniq predmetlarga oid tushuncha sifatida qaralmaydi. Predmetlik keng tushuncha bo‘lib, u nafaqat konkret predmet deb hisoblanadigan tabiiy obyektlar (quyash, jer, ay, suv) va artefaktlar (stol, telefon, kitap), balki mavhum hodisalar nomlarini (uris, jynalis), vaqt ma’nosini ifodalovchi nomlarni (vaqt, saat, minut), harakatni (juri, jaris), belgi va xususiyatlarni (aqliq, jaqsiliq), o‘lchov birliklarini (tonna, litr) ham o‘z ichiga oladi. Ya’ni *jaqsiliq, shaqqanliq, ushirasiv, alawizliq* kabi predmetlarning turli sifat, xususiyat, munosabat va harakatlarini bildiruvchi mavhum so‘zlar grammatik ma’noda predmetlik xususiyatiga ega bo‘lib⁹, haqiqiy predmetlarni bildiruvchi otlar kabi sintaktik vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Grammatik predmetlar ham haqiqiy predmetlar kabi xususiyatlarga ega. Masalan, aniq predmetlardan biri bo‘lgan stolning kattasi yoki kichigi bo‘lganidek, mavhum tushunchalar ham turli sifatlarga ega bo‘lishi mumkin: *yaxshi fikr, mazmunli hayot*. Belgining mavjudligi konkret va abstrakt narsalarning predmetlik ma’nosida birlashtiruvchi asosiy xossasidir.

Birinchi bobning **“Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning grammatik kategoriyalarining umumiy tavsifi”** deb nomlangan ikkinchi qismida ikki tildagi otga xos grammatik kategoriyalar, ularning morfologik ko‘rsatkichlari, fonetik variantlari, qo‘llanilishi va grammatik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

⁶ Савельева О.С. Структура категориального значения предметности // Вестник Челябинского государственного университета. Филология. Искусствоведение. Вып. 49. – Челябинск, 2010. – № 34 (215). – С. 105-108.

⁷ Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение /Под общ.ред. В.М. Жирмунского, М.М. Гухман, С.Д. Кацнельсона. Изд. 3-е. – М.: Едиториал УРСС, 2011. – С. 27.

⁸ Radden G., Dirven R. Cognitive English Grammar. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2007. – P. 56. Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. I: Theoretical Prerequisites. – Stanford, CA: Stanford University Press, 1987. – P. 189.

⁹ Хэзирги каракалпак әдебий тилинің грамматикасы. Сөз жасалыў ҳәм морфология. – Нөкис: Билим, 1994. –Б. 109.

Turli til oilalariga mansub tillarning grammatik kategoriyalari bir-biridan farq qilishi tabiiy. O'rganilgan adabiyotlarga ko'ra, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi ot so'z turkumiga quyidagi grammatik kategoriyalar xosdir.

1.2.1-jadval

Qoraqalpoq va ingliz tillarida otga xos grammatik kategoriyalar

№	Tillar	Til guruhi	Tipologik xususiyati	Grammatik kategoriyalar				
				son	kelishik	egalik	jins	aniqlik/noaniqlik
1	Qoraqalpoq	Turkiy tillar	Agglyutinativ	+	+	+	–	–
2	Ingliz	German tillar	Analitik	+	+	–	–	+

Jadvaldan ko'rinadiki, egalik kategoriyasi ingliz tilidagi otga xos kategoriya hisoblanmaydi. Biroq, bu holat ingliz tilida egalik tushunchasi mavjud emasligini anglatmaydi. Ingliz tilida egalik ma'nosi asosan sintaktik usulda ifodalanadi. Masalan, qoraqalpoq tilida egalik ma'nosi morfologik (kitabim), morfologik-sintaktik (menin kitabim) va sintaktik (bizin uy) usullarda ifodalansa, ingliz tilida bu ma'no faqat sintaktik usulda ifodalanadi: *my book, your book, his book* va h.k.

Ingliz tilidagi otlarning aniqlik va noaniqlik ma'nolari asosan artikllar orqali ifodalanadi va ular qarama-qarshi shakllarga ham ega: *a/an* (indefinite article) va *the* (definite article). Noaniq artikl birlik shaklidagi ot bilan birga ishlatilib, predmetning noma'lum yoki umumiy ekanligini ko'rsatadi. Masalan, *I bought a book yesterday* gapida *a book* iborasidan kitobning tinglovchiga notanishligi ayon bo'ladi. Ko'plikdagi otlarning noaniqligi esa *some* olmoshi orqali ifodalanadi. R. Kuerk *some* so'zining ba'zan *plural article* deb atalishini va urg'usiz aytilganda cheklangan miqdordagi, ammo noaniq ma'nodagi ko'plikni anglatishini ta'kidlaydi¹⁰. Masalan, ingliz tilida *I borrowed a book from the library* jumlasida ko'plik shaklida *I borrowed some books from the library* tarzida ifodalanadi.

Qoraqalpoq tilidagi otlarga oid aniqlik va noaniqlik ma'nolarining ifodalanish usullari M. Qudaybergenov tomonidan maxsus tadqiq etilgan. Olimning fikricha, qoraqalpoq tilida bu ma'nolar sintetik va analitik usullarda ifodalanadi. Sintetik shakllarga "iyelik" va "tabis" kelishiklari, shuningdek, "ko'plik" va "egalik" affikslari kiradi. Analitik shakllarni esa birlik shakli, olmoshlar, sifatdash shakllari va qo'shma so'zlar tashkil etadi. M. Qudaybergenovning ta'kidlashicha, otning birlik son shakli uch xil ma'no anglatadi: aniq birlik, noaniq birlik va umumiy tur tushunchasi¹¹. Masalan, *Men kitap satip aldım* jumlasida *kitap* so'zi noaniq ma'noda qo'llanilib, tinglovchida "qanday kitob?" degan savol tug'iladi. Biroq, *Kitap bilim bulagi* jumlasida esa *kitap* so'zining umumiy ma'no anglatishini tushunish qiyin emas.

¹⁰ Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London and New York: Longman, 1985. – P. 275.

¹¹ Qudaybergenov M. Qaraqalpaq tilidagi atliqlarda aniqlik ham aniqsizliqning a'latilishi. Monografiya. – Nókis: Bilim, 2007.

Qoraqalpoq tilida aniqlik va noaniqlik ma'nolarini ifodalovchi maxsus sintetik yoki analitik vositalar mavjud bo'lsa-da, ular otlarning barcha turlari yoki ma'lum semantik guruhlari uchun barqaror, standart grammatik shakllarni hosil qila olmaydi. Shu sababli, qoraqalpoq tilida aniqlik va noaniqlik ma'nolarini ifodalovchi vositalar mustaqil grammatik kategoriya sifatida shakllanmagan.

Qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham otlar grammatik jins kategoriyasiga ega emas, chunki jinsni ifodalovchi mahsuldor grammatik vositalar mavjud emas. Ingliz tilidagi *actor-actress, hero-heroine*; qoraqalpoq tilidagi *Aziz-Aziza, qudaq-qudag'ay-qudacha, Begimov-Begimova* kabi erkak va ayol jinsini ifodalovchi oppozitiv shakllar leksik birliklar hisoblanadi va har ikkala tilda ham kam uchraydi. E. Vikulovning fikricha, ingliz tilidagi ayol jinsini ifodalovchi *-ess, -ine, -ette* affikslari kam mahsuldor bo'lib, zamonaviy ingliz tilida grammatik paradigmalar hosil qilmaydi¹². Qoraqalpoq tiliga rus tilidan kirib kelgan *-ov/-ova* qo'shimchalari esa faqat familiyalarga xos bo'lib, turdosh otlarga qo'shilmaydi. Qolaversa, har ikkala tildagi bu morfologik ko'rsatkichlar grammatik jins kategoriyasiga ega bo'lgan tillardagi (masalan, rus tili) kabi fe'l shakllariga ta'sir ko'rsatmaydi: *актёр знал – актриса знала* (rus), *actor knows/actress knows* (ingliz), *aktyor biledi/aktrisa biledi* (qoraqalpoq).

Shunday qilib, qoraqalpoq tilidagi ot so'z turkumiga son, kelishik va egalik kategoriyalari xosdir. Ingliz tilida otlar esa son va kelishik kategoriyalariga ega. Dissertatsiyaning asosiy tadqiqot obyekti ham aynan ushbu kategoriyalar bo'lib, ular ilmiy ishimizning ikkinchi va uchinchi boblarida batafsil yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning son kategoriyasining morfologik va semantik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning ko'plik shakllarining morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Hozirgi qoraqalpoq adabiy tilida otning ko'plik son ma'nosi *-lar* va *-ler* qo'shimchalari orqali ifodalanadi. Bu affikslarning qo'llanishi otning oxirgi bo'g'inidagi unlining turiga bog'liq. Odatda orqa qator unlilar (a, i, o, u) qattiq bo'g'inlarni, old qator unlilar (á, e, i, ó, ú) esa yumshoq bo'g'inlarni hosil qiladi. Qattiq bo'g'inlar o'z navbatida ko'plik shakllarining *-lar* variantini, yumshoq bo'g'inlar esa *-ler* qo'shimchasini oladi. Masalan: **-lar**: *bala-balalar, balıqshı-balıqshılar, kitap-kitaplar*; **ler**: *kóshe – kósheler, dári – dáriler, máp-mápler*.

Lekin qoraqalpoq tilidagi barcha so'zlar ham bu qoidaga rioya qilmaydi. Ayniqsa, chet tillardan o'zlashgan so'zlarning imlo va talaffuzida farqlar kuzatiladi. Masalan, rus tilidan o'zlashgan ayrim so'zlardagi *a, o, u* unlilari ularning yumshoq variantlari bo'lgan *á, ó, ú* tarzida talaffuz qilinadi. Natijada ularga ko'plik affiksining yumshoq varianti qo'shiladi: *lakler, patruller, paroller*. Shuningdek, *-lar* va *-ler* variantlarining qo'llanishi otning oxirida kelgan undoshning turiga ham bog'liq. Masalan, rus tilidan o'zlashgan *shtrix, cex* kabi so'zlarning, shuningdek arab tilidan o'zlashgan *tariyx* so'zining oxirgi bo'g'ini yumshoq unlidan iborat bo'lsa-da, bu so'zlarga ko'plik affiksining *-lar* shakli

¹² Викулова Е.А. Теоретическая грамматика современного английского языка: [учеб, пособие]. М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал, федер, ун-т. Текст англ. – Екатеринбург: Изд-во Урал, ун-та, 2014. – С. 26.

qo'shiladi: *cexlar, tariyxlar*. Bu holat so'z oxirida kelgan *x* undoshining fonetik xususiyati bilan bog'liq. Ushbu fonema qoraqalpoq tilida *á, e, i, ó, ú* kabi yumshoq unlilar bilan qator kelmaydi va o'zidan keyin qattiq unlining kelishini talab qiladi: *cexi, cexta, tariyxi, tariyxti*.

Ingliz tilida ko'plik shaklini hosil qiluvchi *-s* va *-es* affikslari o'tning oxirgi fonemasiga qarab qo'shiladi va uch xil fonetik variantda talaffuz qilinadi: [s], [z], [ɪz]: 1) Agar so'zning oxiri jarangsiz undoshlarga tugasa, ko'plik affiksining *-s* shakli qo'shiladi va u [s] kabi talaffuz qilinadi: *desks* [desks], *cats* [kæts]; 2) Agar so'zning oxiri unliga yoki jarangli undoshga tugasa, ko'plikning *-s* shakli qo'shib, [z] tovushini hosil qiladi: *boys* [bɔɪz], *cabs* [kæbz], *dogs* [dɒgz], *friends* [frendz]; 3) Agar so'zning oxiri [s], [z], [ʃ], [tʃ], [ʒ], [dʒ] kabi sibilant tovushlarga tugasa, *-es* affiksi qo'shib, [ɪz] tarzida talaffuz qilinadi: *boxes* [bɒksɪz], *classes* [klɑːsɪz].

Shuningdek, ingliz tilida otlarga ko'plik affikslarining qo'shilishi natijasida to'g'ri (regular) va noto'g'ri (irregular) ko'plik shakllari yuzaga keladi. I. *-s* va *-es* affikslarining *regular plural* yasashi ko'plikning morfologik usuli hisoblanadi. Ularning otga qo'shilishi quyidagicha: 1) Agar o'tning oxiri *s, ss, sh, ch, z, x* harflariga tugasa, ularga *-es* qo'shimchasi qo'shiladi: *bus - buses, class - classes, bush - bushes, bench - benches*; 2) *o* harfiga tugagan otlarning ko'pligi *-os* yoki *-oes* ko'rinishida bo'ladi. Agar *o* unlidan keyin kelsa, *-s* affiksi qo'shiladi: *-os: bamboo - bamboos, embryo - embryos, radio - radios*. Agar *o* harfi undoshdan keyin kelsa, uch xil holat kuzatiladi: a) *-s* qo'shimchasi qo'shiladi: *avocado - avocados, auto - autos*; b) *-es* qo'shimchasi qo'shiladi: *hero - heroes, echo - echoes*; v) Har ikkala shakl ham qo'llanadi: *-os/-oes: buffalo - buffalos/buffaloes, cargo - cargos/cargoes*; 3) Agar *y* harfi undoshdan keyin kelsa, u *i* ga o'zgaradi va *-es* qo'shiladi: *city - cities*. Ammo unlidan keyin *y* harfi o'zgarishsiz qoladi: *boy - boys, day - days*.

II. Ingliz tilda ba'zi otlarga ko'plik son affiksi qo'shilishida o'zakning oxirgi tovushlarda grafik va fonetik o'zgarishlar yuz beradi. Shu sababli bu usul ba'zi adabiyotlarda fono-morfologik usul deb yuritiladi¹³. Fonetik o'zgarishlar, asosan, uchta turdagi fonemada kuzatiladi: 1) [f] tovushi bilan tugagan otlar. Bunday otlarga ko'plik affiksi qo'shilganda uch xil morfonologik hodisa yuz beradi: a) *f* harfi *v* ga almashadi va *-es* affiksini olib, [vz] tarzida talaffuz qilinadi: *calf - calves, leaf - leaves, loaf - loaves, knife - knives*; b) *f* o'tning oxirida juftlanib kelsa (-ff), shuningdek, *f* va *fe* bilan tugagan ayrim so'zlarda *f* o'zgarishsiz qoladi: *belief - beliefs, cliff - cliffs, roof - roofs* va *h.k*; c) ba'zi otlar ikkala shaklda ham ishlatilishi mumkin: *dwarf - dwarfs/dwarves, scarf - scarfs/scarves*. 2) *th* harflariga tugagan otlar. Ular faqat *-s* qo'shimchasini qabul qiladi. Odatda *th* harflari [θ] tarzida talaffuz qilinadi, ammo ko'plik shaklida ikki xil talaffuz hosil qila oladi: [ðz]: *mouth* [maʊθ] ~ *mouths* [maʊðz], *path* [paːθ] ~ *paths* [paːðz], *bath* [baːθ] ~ *baths* [baːðz]; [θs]: *berth* ~ *berths* [bɜːθs], *breaths* [brɛθs], *deaths* [dɛθs]. 3) Faqat bitta so'zda o'zakkdagi *s* tovushi ko'plik qo'shimchasi qo'shilishi bilan [z] tovushiga aylanadi: *house* [haʊs] ~ *houses* [haʊzɪz].

¹³ Qarang: Буранов Дж.Б., Курбаназаров П.К. Англичан тилинің грамматикасы (Морфология). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1974. – Б. 24.

Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi -lar/-s affikslarining morfologik xarakteristikasi

	Xarakteristikasi	-lar	-s	Eslatma
1	Agglyutativ	+	+	kitap lar , books
2	Standart allomorflariga ega	+	+	Q: [lar], [ler] / I: [s], [z], [ɪz]
3	Otga qo‘shilishi otning oxirgi bo‘g‘iniga bog‘liq	+	–	kitaplar, balalar, gúller, tutlar kóshler, muǵállimler, mápler, mektepler
4	Otga qo‘shilishi otning oxirgi fonemasiga bog‘liq	+	+	Q: shtrix-shtrixlar, cex-cexlar, tariyxlar, I: dogs, books, benches
5	Otga qo‘shilishi oxirgi unlisining talaffuziga bog‘liq	+	–	gazler, patruller, paróller, ruller, lakler, fartukler, roller
6	Otning oxirgi harfini o‘zgartiradi	–	+	spy-spies, fly-flies, city-cities
7	Morfonologik hodisa hosil qiladi	–	+	knife – knives, wolf-wolves, loaf-loaves
8	Fonologik hodisa hosil qiladi		+	house [haus] - houses [hauzɪz]
9	Otga qo‘shilishida nostandart usulga ega	+	+	Q: tiyinlar, fartukler, lakler, shiferlar I: colloquies, Marys, monies (moneys), standbys, trollies (trolleys)
10	Ko‘plik variantlari bir-biriga alternativ bo‘la oladi	–	+	dwarf-dwarfs/dwarves, cargo-cargos/cargoes
11	O‘zakdagi so‘nggi fonemani tushiradi	–	+	mirage – mirag -es, edge – edg-es, size – siz-es
12	Otning oxirgi fonemasini juftlaydi	–	+	quiz-quizzes, fez-fezzes

Ingliz tilida ko‘plikning kam mahsuldor shakllari ham mavjud. Masalan, -en affiksi hozirgi ingliz tilida faqat uchta otning ko‘plik shaklini yasaydi: *ox - oxen, child - children, brother - brethren*. Shuningdek, ingliz tilida ayrim otlarning ko‘plik shakli o‘zakdagi unlining almashishi orqali hosil qilinadi. Bunday hodisa **ichki fleksiya** usuli orqali amalga oshadi va u faqat yetti otga xosdir: *man-men, woman-women, foot-feet, tooth-teeth, goose-geese, mouse-mice, louse-lice*. S. Grinbaum ushbu turkumga *child, brother, ox* so‘zlarini ham qo‘shadi¹⁴. Olim bu so‘zlarning ko‘plik shaklini hosil qiluvchi -en affiksini “irregular ending” deb ataydi. Biz esa uni ko‘plik yasashning morfologik usuliga oid birlik sifatida baholaymiz.

Ingliz tilidagi noto‘g‘ri ko‘plikning yana bir turi nol ko‘plik (zero plural) bo‘lib, bunda otning birlik shakli bir vaqtning o‘zida ham birlik, ham ko‘plik ma’nolarni ifodalaydi. Bunday otlar ingliz tilida bir necha tematik guruhlariga ajratiladi: 1) hayvon nomlari (*fish, duck, deer, salmon*); 2) millat nomlari (*chinese, japanese*); 3) o‘lchov birliklari nomlari (*dozen, pound, foot, head*); 4) birlik va ko‘plik ma’noni ifodalaydigan ko‘plik shaklli otlar (*barracks, means, series*).

Noto‘g‘ri ko‘plikning yana bir usuli – chet tillardan o‘zlashgan so‘zlarda kuzatiladi. Bu otlar ingliz tiliga o‘zlarining birlik va ko‘plik shakllari bilan kirib kelgan. Masalan, yunon tilidan kirib kelgan *phenomenon* so‘zining ko‘plik shakli

¹⁴ Greenbaum S. The Oxford English Grammar. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – P. 102.

ingliz tilidagi odatiy *phenomenons* emas, balki yunon tilidagi shaklda – *phenomena* tarzida qo‘llanadi.

Shunday qilib, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otlarning ko‘plik son ma’nolari quyidagi morfologik usullar orqali ifodalanadi.

2.1.2-jadval

Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi otning ko‘plik son shakllari

No	Ko‘plik shakl yasovchi morfologik usullar	Ingliz tili	Qoraqalpoq tili
1	Affiksatsiya	book-books, child-children	kitap-kitaplar
2	Nol fleksiya	sheep-sheep	–
3	Ichki fleksiya	man-men	–
4	O‘zlashma shakllar	thesis-theses	–

Dissertatsiyamizning ikkinchi bobining 2-qismi qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning son shakllarining semantik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Otning grammatik kategoriyalari uning semantik kategoriyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, ushbu bo‘limda qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning ko‘plik son shakllarining ma’nolari uning semantik guruhlariga ko‘ra tahlil qilinadi. Bunday yondashuv ko‘rib chiqilayotgan til tizimlarida otning ko‘plik shakli ifodalaydigan ma’nolarning xususiy va umumiy qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida atoqli, yakka, moddiy va abstrakt otlarning ko‘plik son shaklining ma’nolari alohida tahlil qilinib, ularning asosiy va periferik ma’nolari aniqlandi va olingan natijalar asosida quyidagicha jadval ishlab chiqildi.

2.2.1-jadval

Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning ko‘plik son ko‘rsatkichlari semantikasi

	Ko‘plik affiksalarining ma’nolari	Qoraqalpoq	Ingliz
Yakka otlar / Concrete countable nouns			
1	Noaniq ko‘plik	kitaplar	some books
2	Umumiy ko‘plik	kitaplar	books
3	Xususiy ko‘plik	kitaplar	the books
4	Jamlovchi ko‘plik	quslar, g‘uller, terekler	birds, flowers, trees
5	Assotsiativ ko‘plik	küyewler, bóleler	–
Atoqli otlar / Proper nouns			
6	Reprezentativ ko‘plik	Abdirovlar	the Browns
7	Assotsiativ ko‘plik	Temirbekler	–
8	O‘xshatuvchi ko‘plik	Alpamislilar	Einsteins
9	Metonimik ko‘plik	–	Picassos
Moddiy otlar / Material nouns			
10	Intensivlik ko‘plik	suwlar, qumlar	waters, sands
11	Jamlovchi ko‘plik	maylar, gazler	oils, gases
12	Metonimik ko‘plik	vinolar, jipekler, xrustallar	wines, cottons, silks
13	Distributiv ko‘plik	qanlari, hallari	–
Abstrakt otlar / Abstract nouns			
14	Iterativ ko‘plik	jetiskenlikler, sátsizlikler	achievements, failures
15	Intensivlik kóplik	qorliqlar, azaplar	tortures, pains
16	Distributiv ko‘plik	ómirleri, úmitleri	(their) lives/ hopes
17	Jamlovchi ko‘plik	páziyetleri, minezleri	behaviours, virtues

Assotsiativ ko‘plikda ko‘plik qo‘shimchasi so‘zning o‘zi bildiradigan narsa yoki shaxsning oddiy ko‘pligini emas, balki shu nom orqali predmetlar yoki shaxslar guruhini ifodalaydi. Masalan, ... *kúyewler awıldıń tuw sirtında turıp qaladı* (M.Nızanov) jumlasidagi “*kúyewler*” (o‘zb. kuyovlar) so‘zi kuyov+kuyov+kuyov kabi additiv ko‘plikni emas, balki “kuyov va yonidagilar” ma’nosini bildiradi. Ingliz tilida unga eng yaqin muqobil “...*the groom and his friends...*” hisoblanadi. Masalan: *Meanwhile Frederick and his men had halted about the windmill* (G. Orwell).

Qoraqalpoq tilida ko‘plik shaklidagi muallif ismi uning asarlarini ifodalashda qo‘llanilmaydi. Masalan, “*Meniń úyimde Berdaqar bar*” deb emas, balki “*Meniń úyimde Berdaqarın kitapları bar*” deyiladi. Ingliz tilida esa “*I have three Hemingway’s books at home*” o‘rniga “*I have three Hemingways at home*” deb bema’l aytish mumkin.

Shuningdek, qoraqalpoq tilida ijodkorning ismi birlik shaklida kelib, o‘sha ijodkorning asarini ifodalashda keng qo‘llaniladi. Masalan, I. Yusupovning “*Kóz áynegin qıysayta kiyip, Michurindi oqıydı geyde*” degan qo‘shiq satrida Michurin ismi orqali uning kitobi nazarda tutiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi otning kelishik kategoriyasining morfologik va semantik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Unda qoraqalpoq va ingliz tillaridagi kelishik shakllarining morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Qoraqalpoq tilidagi ot so‘z turkumi olti kelishikka ega: ataw, iyelik, barıs, tabıs, shıǵıs, orın. Ataw (bosh) kelishigidan tashqari barcha kelishiklar maxsus affikslarga ega bo‘lib, ular birlik, ko‘plik hamda egalik shaklidagi istalgan turdagi otlarga bevosita qo‘shila oladi. Qoraqalpoq tilida kelishik tizimi ikki xil ko‘rinishda qo‘llanadi. “jay sepleniw” (oddiy turlanish) va “tartımlı sepleniw” (egalik qo‘shimchali turlanish). Oddiy turlanishda kelishik affikslari so‘z negiziga bevosita qo‘shiladi.

Ingliz tilidagi esa otlar morfologik jihatdan ikki kelishikka ega: **common case** va **genitive case**. Shulardan faqat **genitive case** maxsus morfologik ko‘rsatkichga ega bo‘lib, qoraqalpoq tilidagidek otlarning oxiriga qo‘shiladi va birlik hamda ko‘plik shakllarda qo‘llanadi. Lekin ingliz tilidagi **genitive** qo‘shimchasi barcha otlarga qo‘shila olmaydi. Ayniqsa, jonsiz predmetlarni bildiruvchi otlarga qo‘llanishi cheklangan bo‘lib, bu holatda *of* predlogi ishlatiladi.

3.1.1-jadval

Qoraqalpoq tilida kelishiklarning oddiy turlanishi (birlik son) va ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari

№	Kelishik qoraqalpoq/ingliz	Kelishik affikslari		Ingliz tilidagi ekvivalentlari
		Qoraqalpoq	Ingliz	
1	Ataw/ Common	—	—	Nominative
2	Iyelik/ Genitive	-nıń / -niń -dıń / -diń -tıń / -tiń	-‘s [s], [ɪz], [z]	Genitive/ of+Nom.
3	Tabıs / Common	-nı / -ni -dı / -di -tı / -ti	—	the +Nom.

4	Baris/ Common	-ga / -ge -qa / -ke	–	Nom./ to/for +Nom
5	Shigʻis/ Common	-nan / -nen -dan / -den -tan / -ten	–	from+Nom.
6	Orin/ Common	-da / -de -ta / -te	–	at/on/in+Nom
		26 allomorf	3 allomorf	

Jadvaldan koʻrinadiki, qoraqalpoq tilida faqat iyelik kelishigining ingliz tilida ekvivalenti mavjud. **Iyelik** (qaratqich) kelishigining sodda turlanishida *-diń/-diń*, *-niń/-niń*, va *-tiń/-tiń* qoʻshimchalari ishlatiladi. Ulardan *-diń/-diń* variantlari baʼzi jarangli undoshlarga (g, j, z) va ogʻiz sonorlariga (l, r, w, y) tugagan soʻzlarga qoʻshiladi. *-niń/-niń* affikslari unli va burun sonorlariga (m, n, ń) tugagan otlarga, *-tiń/-tiń* variantlari esa jarangsiz undoshlarga (p, f, k, q, t, sh, s, ch, x, h) va ayrim jaranglilarga (b, v, g, d) tugagan otlarga qoʻshiladi. Bu affikslarning tanlanishi soʻzning oxirgi boʻgʻinidagi unlining turiga ham bogʻliq. I. Agar oxirgi boʻgʻinda orqa qator unlilari (a, ı, o, u) boʻlsa, iyelik kelishigi shakllarining *-niń*, *-diń* va *-tiń* variantlari qoʻllanadi: 1) *-niń*: a) a, ı, o, u + *-niń*: *balaniń*, *oqıwshıniń*, *kinoniń*; b) m, n, ń + *-niń*: *balamniń*, *watanniń*, *shańniń*; 2) *-diń*: g, j, z + *-diń*: *baǵdıń*, *garajdıń*, *ǵazdıń*, *atızdıń*, *muzdıń*; b) l, r, w, y + *-diń*: *kambaǵaldıń*, *balalardıń*, *Bozatawıdıń*, *awıldıń*, *qasqırdıń*; 3) *-tiń*: a) p, f, k, q, t, sh, s, ch, x, h + *-tiń*: *kitaptıń*, *shkaftıń*, *sabaqtıń*, *saattıń*, *dilmashtıń*; b) b, v, g, d + *-tiń*: *arabtıń*, *klubtıń*, *Amanovtıń*, *pedagogtıń*. II. Agar oxirgi boʻgʻinda old qator unlilari (á, e, i, ó, ú) boʻlsa, *-niń*, *-diń* va *-tiń* variantlari qoʻllanadi: 1) *-niń*: a) á, e, i, ó, ú + *-niń*: *kemeniń*, *bólmeniń*, *dárinıń*; b) m, n, ń + *-niń*: *gilemniń*, *edenniń*, *ǵúrrıńniń*; 2) *-diń*: a) j, z + *-diń*: *wájdıń*, *Parıjdıń*, *háwızdıń*; b) l, r, w, y + *-diń*: *náldıń*, *báhárdıń*, *dáwdıń*, *beldıń*, *belbewdıń*, *tıldıń*, *biydiń*; 3) *-tiń*: a) p, f, k, q, t, sh, ch, c, s, x, h + *-tiń*: *ǵáptıń*, *háktıń*, *zúraáttıń*, *máshtıń*, *mekteptıń*, *terektıń*; b) b, v, g, d + *-tiń*: *gerbtıń*, *Kievtıń*, *brıfıngtıń*, *velosipedtıń*.

Lekin qoraqalpoq tilidagi barcha soʻzlar ham bu qoidaga rioya qilavermaydi. Istisnoli holatlar koʻpincha imlo va talaffuzi bir-biridan farq qiluvchi soʻzlarda uchraydi. Bunday soʻzlar asosan rus tilidan oʻzlashgan. Ular ruscha imlo shaklida yozilgan boʻlsa-da, talaffuzda qoraqalpoq tiliga xos boʻlgan singarmonizm qonuniyatiga boʻysunadi. Masalan, *gaz* soʻzidagi *a* harfi [á] shaklida talaffuz qilinadi: [gáz]. Natijada unga iyelik kelishiginiń *-diń* qoʻshimchasi qoʻshiladi: *gazdıń*. Rus tilidan oʻzlashgan *fartuk*, *galstuk*, *pult* kabi soʻzlardagi *u* harfi ham [ú] shaklida oʻqiladi va ularga *-tiń* varianti qoʻshiladi: *fartuktıń*, *galstuktıń*, *pulttıń*. *Parol*, *rol*, *nol* kabi oʻzlashgan soʻzlardagi *o* harfi [ó] tovushini beradi va ularga iyelik kelishiginiń *-diń* affiksi qoʻshiladi: *paroldıń*, *roldıń*, *noldıń*.

Bundan koʻrinib turibdiki, qoraqalpoq tilida unlilar kelishik morfemalarining xilma-xil allomorflarga ega boʻlishida katta rol oʻynaydi.

Qoraqalpoq tilidagi “iyelik” kelishigi qoʻshimchalari ingliz tilidagi *-s* genitive qoʻshimchasi va uning analitik varianti boʻlgan *of* predlogi maʼnolariga mos keladi. Ingliz tilida *-s* affiksining boshqa orfografik shakllari mavjud emas. Lekin u uch xil fonetik variantda talaffuz qilinadi: [ɪz], [z], va [s]. Koʻplik shakli bilan genitive shakli

bir xil tovush (-s, -‘s) dan iborat bo‘lganligi sababli, ularning o‘qilish qoidalari ham umumiydir. Ya‘ni, genitive shaklining talaffuzi ham otning oxirgi fonemasining turiga bog‘liq bo‘ladi: 1) [z] – unli va jarangli undoshlardan keyin: China’s [tʃainəz], taxi’s, Pedro’s; 2) [s] – jarangsiz undoshlardan keyin: *president’s* [prezɪdənts], *student’s*, *Europe’s*; 3) [ɪz] – sibilyant tovushlardan (s, z, ʃ, tʃ, ʒ, dʒ) keyin: *prince’s* [prɪnsɪz], *judge’s*, *niece’s*.

Qaralmish predmetlar birdan ortiq bo‘lsa, otlarga avval ko‘plik son affikslari qo‘shiladi. Qoraqalpoq tilida ko‘plik son qo‘shimchalaridan keyin “iyelik” kelishigi affiksining *-dın/-dın* variantlari qo‘shiladi: *-lardın/-lerdın*. Bunda *-lar* affiksi qattiq bo‘g‘inli otlarga, *-ler* qo‘shimchasi esa yumshoq bo‘g‘inli otlarga qo‘shiladi. Ingliz tilida esa regular ko‘plik shaklidagi otlarning “genitive” shakli faqat apostrof (-‘) orqali ifodalanadi: *cats’*, *wives’*, *boys’*. Bu shaklda tovush mavjud bo‘lmaganligi sababli, olimlar uni “zero genitive” (nol genitive) deb ataydilar. Shuningdek, *species*, *thesis* kabi ikki son ma‘noli hamda chet tillardan o‘zlashgan otlarning genitive shakllari birlik va ko‘plik sonlarda ham “zero genitive” ko‘rinishida bo‘ladi: *thesis’*, *theses’*, *species’* (birlik), *species’* (ko‘plik)¹⁵.

3.1.2-Jadval

Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi “iyelik” va “genitive” kelishik shakllarining morfologik xususiyati

	Xarakteristikasi	-dın	-‘s	Eslatma
1	Agglyutativ	+	+	kitapt <u>ın</u> ; book’s
2	Standart allomorflariga ega	+	+	Q: [dın]/[dın], [nın]/[nın], [tın]/[tın]; I: [s]/ [z]/ [ɪz]
3	Otga qo‘shilishi otning oxirgi bo‘g‘inidagi unliga bog‘liq	+	–	kitapt <u>ın</u> , qos <u>ı</u> qt <u>ın</u> , st <u>o</u> ld <u>ın</u> , mu <u>z</u> d <u>ın</u> , g <u>u</u> zd <u>ın</u> , tere <u>k</u> t <u>ın</u> , bil <u>ı</u> mn <u>ı</u> n
4	Allomorflarining tiplari otning oxirgi fonemasiga bog‘liq	+	+	Q: bal <u>ı</u> n <u>ı</u> n, kem <u>e</u> n <u>ı</u> n, wata <u>n</u> n <u>ı</u> n, g <u>u</u> z <u>ı</u> d <u>ın</u> , kitapt <u>ın</u> , bil <u>ı</u> mn <u>ı</u> n, tawd <u>ın</u> , qust <u>ın</u> I: [s], [z], [ɪz]: China’s [tʃainəz], president’s [prezidents], prince’s [prɪnsɪz]
5	Otga qo‘shilishi otning oxirgi bo‘g‘inidagi unli va undoshning talaffuziga bog‘liq	+	–	patr <u>u</u> ld <u>ın</u> , fart <u>u</u> kt <u>ın</u> , g <u>a</u> z <u>ı</u> d <u>ın</u> , b <u>a</u> kt <u>ın</u> , par <u>o</u> ld <u>ın</u> , r <u>u</u> ld <u>ın</u> , n <u>o</u> ld <u>ın</u> , klub <u>t</u> ı <u>n</u> , kollekti <u>v</u> t <u>ın</u> , pedagog <u>t</u> ı <u>n</u> , sud <u>t</u> ı <u>n</u>
6	O‘zakning oxirgi harfini o‘zgartiradi	–	–	
7	Ikki xil shakli bir-biriga muqobil bo‘la oladi	–	+	Burns’s / Burns’, Jones’ / Jones’s, / Harris’ / Harris’s
8	O‘zakning oxirgi harfini tushirishi mumkin	–	–	
9	Affiks morfemadagi fonema tushirilishi mumkin	–	+	cats’, boys’, for goodness’ sake, for conscience’ sake
10	Birlik va ko‘plik shaklidagi otga qo‘shilgan variantlari bir-biridan farq qiladi	+	+	Q: kitapt <u>ın</u> – kitaplard <u>ın</u> I: boy’s - boys’
11	Affiks morfema tushirilishi mumkin	+	+	Q: teńiz(d <u>ın</u>) t <u>ı</u> bi, awıl(d <u>ın</u>) adamlar <u>ı</u> I: a winter’s day / a winter day, a boys (boys’) school
12	Otning barcha turlariga qo‘shilishi mumkin	+	–	Q: d <u>a</u> p <u>t</u> erd <u>ın</u> , N <u>o</u> kist <u>ın</u> , suwd <u>ın</u> , tabıst <u>ın</u> , xalıqt <u>ın</u>

¹⁵ Huddleston R., Pullum G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – P. 1595.

Dissertatsiyamizning yakuniy bobining ikkinchi qismida qoraqalpoq va ingliz tillaridagi “iyelik” hamda “genitive” kelishiklari ko‘rsatkichlarining semantik xususiyatlari, ularning o‘xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, “baris”, “tabis”, “shıǵıs” va “orın” kelishik shakllari ifodalaydigan ma’nolarning ingliz tilidagi ekvivalentlariga ham oydinlik kiritiladi.

Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi “iyelik” va “genitive” kelishiklarining asosiy ma’nosi tegishlilikdir. Biroq, ular turli periferik ma’nolarga ham boy. Bu ma’nolar, avvalo, iyelik/genitive konstruksiyalarida ishtirok etuvchi so‘zlarning – xususan, otning qaysi semantik turiga mansubligi hamda predmetlar o‘rtasidagi munosabat xarakteriga bog‘liq holda aniqlanadi.

3.2.1-jadval

Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi ‘iyelik’ va ‘genitive’ kelishiklari ma’nolari

	Iyelik/Genitive	Qoraqalpoq tili	Ingliz tili
1	Possessiv munosabat	Azattıń kitabı	Tom’s book
2	Organik munosabat	Azattıń qolı	Tom’s hand
3	Subyektiv munosabat	shıpakerdiń keńesi	the doctor’s advice
4	Obyektiv munosabat	tutqınnıń bosatılıwı	prisoner’s release
5	Manba ma’nosi	sıyırdıń sütünı	cow’s milk
6	Maqsad ma’nosi	qızdın kóylegi	women’s clothes
7	Atributiv munosabat	qızdın sulıwlıǵı	the girl’s beauty
8	Qarindoshlik munosabat	Azattıń balası Azattıń jorası	Tom’s son Tom’s friend
9	Kasbiy munosabat	mekemeniń direktorı	the company’s director
10	Kuchaytiruvchi ma’no	patshalardıń patshası	–
11	Partitiv ma’no	oqırwshılardıń biri	–
12	Sabab-natija munosabat	ashlıqtıń azabı	–
13	O‘lchov ma’nosi	góshtiń kilosı	–
14	Elliptik genitiv	–	It is Tom’s
15	Lokal genitiv	–	at the dentist’s
16	Davomiylik genitivi	–	an hour’s walk
17	Oraliq genitivi	–	fifty yards’ distance
18	Baholash genitivi	–	a pound’s worth
19	Temporallik genitivi	–	tomorrow’s meeting

Qoraqalpoq tilidagi “iyelik” kelishigining kuchaytirish, partitiv, o‘lchov, sabab-natija ma’nolari ingliz tilida *of* predlogi orqali ifodalanadi: *patshalardıń patshası* – *the king of the kings*, *oqırwshılardıń biri* – *one of the pupils*, *góshtiń kilosı* – *a kilo of meat*. Kasb munosabatlari ingliz tilida asosan N+N, N’s+N yoki N of N konstruksiyalari orqali ifodalanadi: *company manager*, *the company’s director*, *the manager of the company*. Ingliz tilidagi elliptik genitiv qoraqalpoq tilida abstrakt egalik orqali ifodalanadi: *It is Tom’s* – *Bul Tomdiki*. Davomiylik, baholash genitivlari esa -lıq/-lik qo‘shimchasi orqali ifodalanadi: *an hour’s walk* – *bir saatlıq jol*, *a pound’s worth of food* – *bir pundlıq azıq-awqat*. Ingliz tilidagi temporallik genitive qoraqalpoq tilida -ǵı/-gi, -qı/-ki qo‘shimchalari orqali ifodalanadi: *today’s issue* – *bugingi másele*.

Baris kelishigi. Qoraqalpoq tilida “baris” (jo‘nalish) kelishigidagi otlar harakatning subyeksi va obyektiga bog‘liq bo‘lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

1) Harakatning bir obyektga yoʻnalishini bildiradi. Bu holda “baris” kelishigidagi otlar harakatning nishonini koʻrsatib, uch xil holatni yuzaga keltiradi: a) Biror predmetning harakati ikkinchi predmet (nishon)ga qaratiladi. Bunda voqea ikki ishtirokchidan iborat boʻladi: *oqitwshigʻa aytw, súwretke qaraw* (to tell the teacher, to look at the picture); b) Harakat orqali subyektning oʻzi obyektga yoʻnaltiriladi. Bu holda ham voqeada ikki ishtirokchi qatnashadi: *diywalgʻa súyeniw, avtobusga miniw, úyge kiriw* (to lean on/against the wall, to get on the bus, to get into the house); c) Harakat egasi bir obyektни boshqa obyektga yoʻnaltiradi. Bu holatda uchta predmet ishtirok etadi va “baris” kelishigi shaklidagi soʻz qabul qiluvchi predmet vazifasini bajaradi: *balaḡa kitap beriw, balanı mektepke alıp barıw* (to give a book to a child, to take a child to school). Shuni ham taʼkidlash joizki, otning “baris” kelishigida boʻlishi, uni boshqaruvchi feʼlning semantikasiga bogʻliq boʻladi. Ingliz tilida harakat yoʻnalishi *to, for, into, in, on, onto* va boshqa predloglar yordamida ifodalanadi.

Baris kelishigi quyidagicha periferik maʼnolarni ham ifodalaydi: 1) Predmetning nimaga moʻljallanganligini koʻrsatadi. Ingliz tilida bu maʼno *for* predlogi orqali ifodalanadi: *balalarḡa sawḡalar – presents for children*; 2) Ikki narsani taqqoslashda qoʻllaniladi. Ingliz tilida qiyoslash maʼnosi *as, like*¹⁶, soʻzlari yordamida ifodalanadi: *Sen piyazḡa uqsaysań* (G. Ibragimova). *You look like an onion*; 3) Predmetning miqdor-darajasi yoki predmetga xos belgini koʻrsatishda ishlatiladi. Bunda baris kelishigidan keyin predmetning miqdor-darajasini bildiruvchi sifatlar qoʻllaniladi. Ingliz tilida *in* va boshqa predloglar orqali ifodalanadi: *mineralḡa bay - rich in minerals, neftke jarlı - poor in petroleum resources*; 4) Predmet yoki hodisaning yangi holatiga nisbatan qoʻllaniladi. Ingliz tilida bu *into/to* predlogi orqali ifodalanadi: *Jap-salmalarda suwlar muzḡa aylandı* (G. Ibragimova). *The water in the streams turned into ice*; 5) Harakatning davomiyligini anglatadi. Ingliz tilida *period for* predlogi orqali ifodalanadi: *úsh jılḡa - for three years, bir ayḡa-for a month*; 6) Harakatning aniq vaqtga rejalashtirilganligini bildiradi. Ingliz tilida *for* predlogi yordamida ifodalanadi: *Toydı usı aldımızdaḡı shembi kúnge belgiledik* (S. Jumaḡulov). *We fixed the wedding for next Saturday*; 7) Ish-harakatning maqsadini bildiradi. Ingliz tilida *for* predlogi qoʻllaniladi: *Orenburgqa júnge ketip edi* (M. Nızanov). *He had gone to Orenburg for wool*; 8) Sifat soʻzlar bilan birikib munosabatni ifodalaydi. Ingliz tilida munosabatlar asosan *to* predlogi yordamida ifodalanadi: *Bekpolat aq kókirek, hárdayım adamlarḡa miyirman bala. Bekpolat is always sincere and kind to people*; 9) Inson tuygʻusiga stimul boʻladigan predmet yoki hodisalarni bildiradi. Ingliz tilida turli predlogli konstruktsiyalar orqali ifodalanadi: *Balalardıń kópshiligi jolbarısqa qızıḡıp qaldı. Most of the children got interested in the tiger.*

Tabis kelishigi. Qoraqalpoq tilida “tabis” (tushum) kelishigi shaklidagi otlar harakatning bevosita obyektini koʻrsatadi va gapda vositasiz toʻldiruvchi vazifasini bajaradi. Bu “tabis” kelishigining gap ichidagi yagona funksiyasidir. Shuningdek, “tabis” kelishigi maʼnolari belgili va belgisiz shakllarda ifodalanadi. Belgili shakl ingliz tilidagi aniq artikl (the) maʼnosiga toʻgʻri keladi: *N+ -dı = the+N: kitaptı - the*

¹⁶ Collins Cobuild English Guides 1: Prepositions. HarperCollins Publishers Ltd, 1991. – P. 46.

book. Belgisiz turi esa noaniq artiklga (a/an) to'g'ri keladi. $N+\emptyset = a/an + N$: *kitap* + $\emptyset$ - a book.

Turkologik adabiyotlarda aniqlik va noaniqlik kategoriyalarining asosiy ko'rsatkichlari sifatida "bul" va "bir" so'zlari ko'rsatiladi.¹⁷ Darhaqiqat, *ol, sol, bul, ana, mina* kabi ko'rsatish olmoshlari aniq predmetlarni ifodalovchi vositalar bo'lganligi tufayli, ular o'zidan keyin kelgan otning ham tabiis kelishigining belgisi shaklida kelishini talab qiladi. *Bir* soni esa bosh kelishigidagi otdan avval kelib, noaniqlik ma'no ifodalaydi.

Ingliz tilida otlarning aniqlik va noaniqlik darajalari analitik usulda bildiriladi. Sanaladigan otlarda noaniqlik birlik shaklida *a/an* artikli bilan, ko'plik shaklida esa *some* olmoshi orqali ifodalanadi. Otlarning aniqlik darajasini *the* artikli belgilaydi.¹⁸ Masalan, qoraqalpoq tilidagi quyidagi gaplar ingliz tilida shunday ifodalanadi: 1) *Bazardan (bir) kitap satip oldim* - I bought a book from the market; 2) *Bazardan (sol) kitapti satip oldim* - I bought the book from the market.

Qoraqalpoq tilida "tabiis" kelishigi quyidagi holatlarda belgisi shaklida qo'llanadi: 1) Atoqli otlar bilan. Chunki ular aniq predmetlarni bildiruvchi til birliklari hisoblanadi va ularga "tabiis" kelishigi affiksi majburiy qo'shiladi. Ingliz tilida esa atoqli otlardan oldin *the* artiklini qo'llash shart emas: *Nokisti birinshi koriwim* (K. Raxmanov). *It's the first time I have been to Nukus. Biraq ol sol kuni Salawat hesh jerden de taba almadı* (N. Janabaeva). *But he could not find Salawat anywhere that day*; 2) Aniqlovchiga ega bo'lgan otlarga. Masalan: *Mina kitapti kim akeldi?* (M. Nizanov). *Who brought this book?*; 3) Ot bilan uni boshqaruvchi fe'l o'rtasida boshqa so'zlar kelganda. Masalan: *Arzu qarmagti jipke orap qaltasina saldı* (J. Aymurzaev). *Arzu wrapped the bait in string and put it into his pocket*; 4) Egalik affiksi qo'shilgan otlarda. Chunki egalik qo'shimchasi aniqlik darajasini ifodalaydi. Ingliz tilida esa egalik ma'nosi genitive shaklidagi kishilik olmoshlari orqali ifodalanadi va ulardan oldin artikl ishlatilmaydi: *Hamme bala kitabın ashtı* (G. Esemuratova). *All the pupils opened their books*; 5) Ega va to'ldiruvchi bir o'zakdan bo'lganda. Bunda "tabiis" kelishigi umumiy ma'no anglatadi va ingliz tilida u noaniq artikl orqali ifodalanadi: *Balıqshını balıqshı uzaqtan tanıydı deydi gıoy* (K. Raxmanov). *A fisherman can recognize a fisherman in the distance*.

Shıǵıs kelishigi. Qoraqalpoq tilidagi "shıǵıs" (chiqish) kelishigi ma'nolari va ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari quyidagicha: 1) Harakat chiqqan obyektini bildiradi. Ingliz tilida bu ma'no *from, out of, off* predloglari yordamida ifodalanadi: *Bir háptelikte men Nursulıwdan xat aldım* (K. Raxmanov). *A week ago I received a letter from Nursuluw*; 2) Harakatning chiqqan o'rnini bildiradi. Ingliz tilida bu *from* predlogi orqali ifodalanadi: *Búgin aǵam Tashkentten keldi* (Z. Ishmanova). *My father returned from Tashkent today*; 3) Predmetning bir tomondan ikkinchi tomonga o'tish yo'lini (vositasini) ko'rsatadi: *parkten ótiw, tunnelden ótiw, kósheden júriw, dáryadan keship ótiw*. Ingliz tilida *through, across, along* predloglari orqali ifodalanadi¹⁹: *through the tunnel, across the field /river, to get into the room through the window*:

¹⁷ Дәуєнов Е., Дәўлетов М. Ҳазирги қарақалпақ әдебий тилинің грамматикасы. – Нөкис: Билим, 1992. –Б.159.

¹⁸ Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London and New York: Longman, 1985. – P. 265-274.

¹⁹ Dixon R.M.W. English Preposition: Their meanings and uses. – Oxford University Press, 2021. – P. 330-333.

Dárwazadan kirip o'ng'a aylanasañ (M. Nızanov). Enter the building through the gate and turn right; 4) Harakatning amalga oshgan joyini bildiradi. Ingliz tilida *at, in, on* predloglari orqali beriladi: *Qoñirattan medrese ashamız, – dep úlken úmit penen aytar edi* (M. Nızanov). “We will open a madrasah in Kungrad,” - he would say with great hope; 5) Predmetlarning qiymatini bildiradi. Bu ma’no ingliz tilida *for* predlogi yordamida ifodalanadi: *Tawıqlardıñ iyesi bes danasın eliw tiyinnan satıp baslaptı* (M. Tawmuratov). The owner of the chickens started to sell every five chickens for fifty tiyns; 6) Harakat yoki hodisaning sababini anglatadi. Ingliz tilida bu ma’no *because of, due to, in view of, on account of, owing to, from, of, with, over* kabi predloglar orqali ifodalanadi²⁰: *Haywanlar ashlıqtan qırıla basladı* (J. Ábdireymov). Animals began to die of hunger; 7) Predmetning materialini bildiradi. Ingliz tilida *be made of / from / out of, be made with*²¹ kabi so’z birikmalari yordamida ifodalanadi: *Seniñ ústindegi minaw sulıw kóylegiñ de paxtadan islengen* (T. Najimov). This beautiful dress you are wearing is also made of cotton; 8) Partitivlik ma’nosini anglatadi. Bunda predmetlar guruhidan bir yoki bir nechta a’zo ajratib ko’rsatiladi. Ingliz tilida asosan *of* predlogi orqali ifodalanadi: *one of the students - talabalardıñ biri. Bul da sol xan nókerlerinen biri edi* (T. Qayıpbergenov). He was also one of Khan’s warriors; 9) Harakat vositasini bildiradi. Ingliz tilida bu ma’no *by, through, over, on, with, via* predloglari orqali ifodalanadi²²: *Jınayat júz bergeni haqqında mağan telefonnan joldas Mamanov xabarlap edi* (A. Aqnazarov). I had been informed about the crime over the phone by comrade Mamanov.

Orin kelishigi. Qoraqalpoq tilida “orin” kelishigi predmet yoki harakatning o’rini bildiradi. Ingliz tilida esa o’rin-payt ma’nolari odatda *at, in, on, by* va boshqa bir qator predloglarning otlardan oldin kelishi orqali ifodalanadi: *mektepte –at school, diywalda-on the wall, bólmeye-in the room*.

Qoraqalpoq tilidagi “orin” kelishigi ma’nolari va ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari quyidagicha: 1) Predmet joylashgan obyektni ko’rsatadi: *Kitaplarda bári jazılğan* (K. Raxmanov). Everything is written in books; 2) Predmetning o’rini bildiradi: *Bizler Qoñiratta bes jıl turdıq, – dedi Rafael* (M. Nızanov). “We lived in Kungrad for five years,” - said Rafael; 3) Ma’lum bir faoliyat amalga oshadigan joyini bildiradi. Ingliz tilida ko’pincha *at* predlogi ishlatiladi: *Qáterjam bolaber, infarkt bolğan jigit rulde otırıptı, - deydi* (M. Nızanov). Don’t worry, the guy who had a heart attack is at the wheel; 4) Aniq vaqtni bildiradi. Ingliz tilidagi *at, in, on, by* predloglari o’rin ma’nosidan tashqari vaqt ma’nosini ham ifodalashda qo’llaniladi: *Bahárde barlıq ağash japıraq jayadı* (Ó. Ayjanov). In spring all trees put out leaves; 5) Harakatning muddatini bildiradi. Ingliz tilida bu odatta *within* predlogi yordamida ifodalanadi: *Serjanov úsh kúnde eliw procent beredi* (T. Qayıpbergenov). Serjanov will give 50% within three days; 6) Ish-harakatning muntazam takrorlanishini bildiradi. Ingliz tilida bu *every + day/ year/ month* kabi birikmalar orqali ifodalanadi: *jilda = hár jılı – every year, kúnde = hár kúni – every day*; 7) Harakatning amalga oshishidagi qurol va usulni ifodalaydi. Ingliz tilida *by, in, on* va boshqa predloglar

²⁰ Collins Cobuild English Guides 1: Prepositions. HarperCollins Publishers Ltd, 1991. – P. 38-62.

²¹ Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London and New York: Longman, 1985. – P. 710.

²² Dixon R.M.W. English Preposition: Their meanings and uses. – Oxford University Press, 2021. – P. 141-335.

ishlatiladi: *Takside kiyaturman deysen boldi, wassalam!* (S. Ismaylov). *Tell them you are coming in a taxi!*; 8) Kiyim nomlari bilan kelib, odamning qanday kiyimda ekanligini bildiradi. Ingliz tilida *in* predlogi ishlatiladi: *Birewi formada, leytenant. Qalغان ekewi ápiwayı kiyimde edi* (A. Aqnazarov). *One was in uniform, sir. The other two were in ordinary clothes*; 9) Insonning ruhiy, moddiy, jismoniy va boshqa holatlarini bildiradi: *azapta qalıw, ráhátte jasaw, qayǵıda jasaw, ómiri qorlıqta ótiw*. Ingliz tilida bu ham *in* predlogi yordamida ifodalanadi: *in agony, in poverty, in trouble, in happiness, in joy, in sorrow, to live in misery: Birinshi kúnniń aqshamı azapta attı* (Á. Atajanov). *The first evening passed in agony*.

XULOSA

1. Qoraqalpoq tilidagi ot soʻz turkumi uchta (son, kelishik va egalik), ingliz tili esa ikkita morfologik kategoriyaga (son va kelishik) ega.

2. Ikkala tilda ham otga xos son grammatik kategoriyasi birlik va koʻplik qarama-qarshiligidan tashkil topadi. Har ikkala tilda ham otning birlik shakli, asosan, ot negizi orqali ifodalanadi. Biroq ingliz tilida prototip otlar qoʻshimcha ravishda artikllar yordamida faollashadi.

3. Ikkala tilda ham koʻplik shakllari asosan agglyutinativ xususiyatga ega boʻlib, ularning asosiy maʼnosi noaniq koʻplikdir. Ingliz tilidagi otning mahsuldor koʻplik shakllari oʻqilishi va yozilishi jihatidan farqlanib, toʻgʻri va notoʻgʻri koʻplik shakllarini hosil qiladi. Bu farqlanishlar otning oxirgi fonemasiga bogʻliq boʻladi. Regulyar shakllar koʻplik qoʻshimchasining otlarda hech qanday orfografik oʻzgarish keltirib chiqarmasligi bilan xarakterlanadi. Notoʻgʻri shakllar otning oxirgi tovushlarida orfografik oʻzgarishlar yuzaga chiqaradi. Shuningdek, ingliz tilida otlar koʻplik maʼno anglatuvchi kammahsul shakllariga ham ega. Qoraqalpoq tilidagi ot soʻz turkumi esa, aksincha, kam mahsuldor koʻplik shakllariga ega emas. Qoraqalpoq tilidagi koʻplik shakllarining otga qoʻshilishi, asosan, otning oxirgi boʻgʻinidagi unlining turiga bogʻliqdir. Shuningdek, qoraqalpoq tilidagi koʻplik shakllar otning oxirgi harflarida imloviy va fonetik oʻzgarishlar yasay olmaydi.

4. Koʻplik shakllarining asosiy va periferik maʼnolarining ikkala tilga xos umumiy va xususiy jihatlari aniqlandi. Xususan, ingliz tilida “assotsiativ koʻplik” sintaktik qurilmalar yordamida ifodalanadi. Qoraqalpoq tilida esa koʻplik shakli baʼzi otlarda metonimik maʼno ifodalash qobiliyatiga ega emas. Bu esa qoraqalpoq tilidagi koʻplik shaklining ingliz tilidan farqli jihatlari koʻrsatadi.

5. Hozirgi qoraqalpoq tilidagi ot soʻz turkumi olti kelishikdan (ataw, iyelik, baris, tabis, shıǵıs, orın), ingliz tilida esa ikki kelishikdan (common case, genitive case) iborat. Qoraqalpoq tilida “ataw” (bosh) kelishigidan tashqari barcha kelishiklar maxsus affikslarga ega boʻlib, ular birlik, koʻplik va egalik shaklidagi otlarga bevosita qoʻshiladi va hech qanday fonetik oʻzgarishlarga uchramaydi. Shuningdek, qoraqalpoq tilidagi kelishik affikslari istalgan turdagi otlarga qoʻshila oladi. Ingliz tilida esa faqat ‘genitive’ kelishigi maxsus morfologik koʻrsatkichga ega boʻlib, u qoraqalpoq tilidagi “iyelik” kelishigi affikslari kabi otlarning oxiriga qoʻshiladi va birlik hamda koʻplik shakllarida namoyon boʻladi. Biroq ingliz tilidagi “genitive” kelishigi qoʻshimchasi barcha otlarga qoʻshila olmaydi.

6. Qoraqalpoq tilida ham ko'plik va kelishik qo'shimchalarining otlarga qo'shilishida nostandart holatlar kuzatiladi. Bunday holatlar, asosan, chet tillardan o'zlashgan so'zlarga xos bo'lib, bu so'zlarning talaffuzi qoraqalpoq tilining fonetik xususiyatlariga moslashtirilishi bilan bog'liqdir. Natijada o'zlashgan so'zlarning oxiri qattiq bo'g'nli bo'lsa-da, ularga ko'plik va kelishik shakllarining yumshoq unli variantlari qo'shiladi. Bular asosan, imloviy xarakterga ega nostandart holatlar hisoblanadi. Qoraqalpoq tilida son va kelishik affikslarining otlarga qo'shilishidagi nostandart holatlar otning oxirgi fonemasining tipiga ham bog'liq bo'ladi.

7. Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi "iyelik" va "genitive" kelishik ko'rsatkichlari morfologik hamda semantik jihatdan muayyan mushtarakliklarga ega. Ikkala tilda ham ushbu kelishik shakllari otga birikishi jihatidan agglyutinatив xarakterga ega. Farqli jihati shundaki, ingliz tilidagi "genitive" shakli to'liq va qisqa shakllarga ajratiladi. To'liq shakl tovush va apostrofdan iborat bo'lib, u asosan birlik sondagi otlarga xosdir. To'liqsiz shakl esa faqat apostrof belgisi orqali ifodalanadi va ko'pincha ko'plik sondagi otlar, ba'zi atoqli otlar hamda barqaror so'z birikmalarida ishlatiladi. Qoraqalpoq tilidagi "iyelik" affiksining otga qo'shilishi esa otning oxirgi bo'g'inidagi unlining tipiga hamda oxirgi fonemaning turiga bog'liq holda amalga oshadi. Bunda birlik va ko'plik shakldagi otlarga qo'shiladigan iyelik affikslari turlicha bo'lib, ular muayyan fonetik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ikkala tilda ham iyelik va genitive shakllari otning oxirgi fonemalarida grafik o'zgarishlarni keltirib chiqara olmaydi.

8. Ikkala tildagi "iyelik" va "genitive" shakllarining semantikasida ham o'xshashlik, ham tafovutlar mavjud. Xususan, ingliz tilidagi lokal, elliptik, maqsad, miqdor-daraja ma'nolari qoraqalpoq tilida "iyelik" kelishigi affikslari orqali ifodalanmaydi. Ingliz tilida esa kuchaytirish, partitiv, o'zlik, sabab-natija munosabatlari "genitive" kelishigi yordamida emas, balki boshqa til birliklari yordamida ifodalanadi. Qoraqalpoq tilida "iyelik" kelishigi ma'nolari belgisiz ifodalanish xususiyatiga ham ega.

9. Qoraqalpoq tilidagi "baris", "tabis", "shigis" va "orn" kelishiklarining ingliz tilida morfologik ekvivalentlari mavjud emas. Bu kelishiklarning ma'nolari ingliz tilida asosan predloglar, shuningdek so'z tartibi orqali ifodalanadi. "Tabis" kelishigi affiksining ingliz tilidagi prototipi aniq artikl hisoblanadi, uning belgisiz shakli esa noaniq artiklga mos keladi. "Baris" kelishigi ingliz tilida asosan *to* va *for* predloglari orqali ifodalanadi. "Shigis" kelishigi shaklining ingliz tilidagi tipik ekvivalenti *from* predlogidir. "Orn" kelishigi shakllarining asosiy ma'nolari esa ingliz tilida *at*, *in* va *on* predloglari yordamida ifodalanadi. "Orn" kelishigi shakli ham, ushbu predloglar ham nafaqat o'rin, balki vaqt ma'nosini ifodalashda ham qo'llanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

БЕКБЕРГЕНОВ ХИКМЕТ УТЕПОВИЧ

**МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В КАРАКАЛПАКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ
ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан под номером № В2023.2.PhD/Fil3469.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно-образовательном портале (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Сейтжанов Жеткербай Елубаевич
кандидат филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Альниязов Айтмурат Исмаилович
доктор филологических наук, профессор

Абидова Рохатой Худайберганиевна
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Нукусский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится 23 октября 2025 года в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдилов, дом-1.Тел.: (99861) 223-59-25; Факс: (99861) 223-59-25. E-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрирована за № 378) (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдилов, дом-1.Тел.: (99861) 223-59-25; Факс: (99861) 223-59-25. E-mail: karsu_info@edu.uz)

Автореферат диссертации разослан 23 октября 2025 года
(реестр протокола рассылки № 1 от 27 октября 2025 года).




М.С.Кудайберганиев
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор

Г.К. Кдырбаева
И.о. учёного секретаря Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук (DSc), доцент


Г.А.Курбаниязов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор филологических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современной лингвистике именной класс слов, являющийся одной из крупнейших грамматических категорий, характеризуется специфическими морфологическо-семантическими и функционально-семантическими особенностями. Существительное и его грамматические средства служат для выражения предметов в реальной действительности, их количества и отношений между ними. Однако морфологическое строение этих средств существенно различается в разных языках мира. Особенно заметно, что с увеличением генетической дистанции между языками степень их сходства уменьшается, а различия становятся более выраженными. Выявление этих особенностей является одной из самых актуальных задач современной лингвистики, особенно сравнительного языкознания.

В мировой лингвистике существительное рассматривается как одна из важнейших частей речи с точки зрения его лексического объема, сферы применения и функций в предложении. В каракалпакском и английском языкознании проведено множество исследований по грамматическим категориям, морфологическому строению и семантическим особенностям существительных. Однако недостаточный сравнительно-типологический анализ формальных и семантических особенностей этих грамматических категорий на примере каракалпакского и английского языков определяет актуальность данного научного исследования. Сравнительное изучение языковых единиц, принадлежащих к разным языковым семьям, с точки зрения языка и речи, выражения и содержания играет важную роль в выявлении как общих, так и частных признаков. В результате раскрываются межъязыковые универсалии и особенности, расширяется круг существующих научных теорий и обогащается их содержание новыми подходами.

С первых лет независимости особое внимание уделяется изучению и преподаванию государственного, родного и мировых языков. Как отметил президент Республики Узбекистан: “Развитие государственного языка мы рассматриваем во взаимосвязи с развитием ведущих иностранных языков мира, языков и культур представителей разных наций, живущих в нашей стране”¹, – это подчеркивают актуальность сравнительно-типологического изучения государственного языка в сопоставлении с родственными и другими языками мира. Сравнительное исследование грамматических категорий существительного на материале каракалпакского и английского языков вносит свой вклад в развитие лингвистической науки и межкультурного взаимодействия.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганига 34 йил тўлиши муносабати билан Ўзбекистон халқига байрам табриги // Халқ сўзи. – Тошкент, 2023 йил, 22-октябрь. - №225 (8568). – б. 1

2022-2026 годы”, в Указе Президента от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета Узбекского языка в качестве государственного языка», в Постановлении Президента от 20 апреля 2017 года ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», в Постановлении Президиума Жокаргы Кенеса Республики Каракалпакстан от 3 ноября 2020 года № 135 “О мерах по дальнейшему повышению авторитета и роли каракалпакского языка в качестве государственного языка”, а также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики: I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических, инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. Научные исследования, посвящённые имени существительному и его грамматическим категориям в каракалпакском языкознании, проводились такими учёными, как Н. Баскаков, А. Кыдырбаев, М. Давлетов, Э. Давенов, А. Давлетов, А. Нажимов, А. Ниязов, А. Бекбергенов, М. Кудайбергенов, Ш. Абдиназимов и др.² Также А. Кыдырбаев, Д. Насиров, М. Кудайбергенов, К. Сейтова, Р. Жапакова, А. Оразимбетов, М. Эмбергенова, Г. Патуллаева и Г. Абишова подробно исследовали грамматические категории числа, падежа, определенности/неопределенности и притяжательные формы существительных в каракалпакском языке³.

Категории числа и падежа в английском языке получили широкое освещение в научных трудах Р. Квирка, С. Гринбаума, Г. Лича, Дж. Свартвика, Р. Хаддлстона, Г. К. Пуллума, а также в научной грамматике, написанной

² Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Т. 3. Морфология (Словоизменение). Синтаксис (Словосочетание и предложение). – Нукус: Билим, 1995; Кыдырбаев А. Хэзирги каракалпак тилиндеги атлык сөзлер. – Нөкис, 1968; Хэзирги каракалпак әдебий тилинің грамматикасы. Сөз жасалыў хэм морфология. – Нөкис: Билим, 1994; Хэзирги каракалпак тили морфология. – Нөкис: Каракалпакстан, 1981; Дәўенов Е., Дәўлетов М. Хэзирги каракалпак әдебий тилинің грамматикасы. – Нөкис: Билим, 1992; Хэзирги каракалпак тили. Синтаксис. – Нөкис: Билим, 1996; Dáwletov A., Dáwletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. Sintaksis. Sabaqlıq. – Nókis: Bilim, 1996; Qudaybergenov M., Qazaqbaeva A., Kurtchaev A. Qaraqalpaq tiliniń teoriyalıq grammatikası. Qıw qollanba. – Nókis, 2016; Abdinazimov Sh. Qaraqalpaq tili tariyxı. 5120100 – Filologiya hám tillerdi oqıtıw (qaraqalpaq filologiyası) baǵdarı talabaları ushın sabaqlıq. – Tashkent: Sano-standart, 2018.

³ Насыров Д.С. Каракалпак тилинде көплик категориясы. – Нөкис, 1961; Сейтова К.П. Способы выражение множества в современном русском языке (в сравнении с каракалпакским): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983; Жапакова Р.Н. Склонение имен существительных в каракалпакском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нукус, 1971; Qudaybergenov M. Qaraqalpaq tilindegi atlıqlarda anıqlılıq hám anıqsızlıqtıń anlatılıwı. Monografiya. – Nókis: Bilim, 2007; Orazımbetov A.Q. Házirgi qaraqalpaq tilinde san mánisiniń anlatılıwı. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2010; Patullaeva G. Qaraqalpaq tilinde tartım mánisiniń bildiriliw usılları. Monografiya. – Tashkent: BAYOZ, 2015; Embergenova M.A. Házirgi qaraqalpaq tilinde seplikli konstrukciyalardıń sinonimiyası. Metodikalıq qollanba. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2006; Abishova G. Nemis va qoraqalpoq tillarida kelishiklar sistemasining semantik vazifasi: Filol. fan. fals. d-ri. (PhD) ... dis. Avtoref. – Nukus, 2024.

Д. Бибером, С. Йохансоном, Г. Личем, С. Конрадом и Э. Финеганом⁴. Особое внимание категориям числа и падежа уделяли Дж. Хьюсон, М.А. Викенс, В. Хиртл, К. Аллан, Ч. Филмор, Дж. Р. Тейлор, Дж. Андерсон и А. Розенбах⁵.

Исследования по категориям числа и падежа, проведённые в данной диссертации, основывались на теориях вышеупомянутых учёных.

